



QORAQOLPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA 2014– 2024 YILLAR DAVOMIDA O'TKIR YUQUMLI ICHAK INFEKSIYALARI BILAN KASALLANISHNING RETROSPEKTIV EPIDEMIOLOGIK TAHLILI

**Tuyeva Dildora
Matyoqib qizi**

*TDTU Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlash
menejmenti va jismoniy tarbiya kafedrasi assistenti*

**Tajibayeva Dilnoza
Adilovna**

TDTU Epidemiologiya kafedrasi magistri

**Saidkasimova Nargiz
Sayfullayevna**

PhD, TDTU Epidemiologiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot Qoraqalpog'iston Respublikasida 2014–2024 yillar davomida o'tkir yuqumli ichak infeksiyalari (O'YuIK) bilan kasallanishning retrospektiv epidemiologik tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotning maqsadi kasallanishning ko'p yillik dinamikasini, epidemik jarayonning asosiy qonuniyatlarini hamda hududlar kesimidagi epidemiologik tafovutlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot rasmiy statistika va sanitariya-epidemiologik xizmat ma'lumotlari asosida o'tkazilib, intensiv ko'rsatkichlar, variatsiya va regressiya tahlillari qo'llanildi.


Tahlil natijalariga ko'ra, o'rganilgan davrda uchta asosiy epidemik ko'tarilish davri aniqlanib, kasallanishning mavsumiyligi, tashqi muhit omillariga sezgirligi va ko'p omilli xarakteri tasdiqlandi. COVID-19 pandemiyasi davrida kasallanishning sun'iy pasayishi va pandemiyadan keyingi yillarda keskin ko'tarilishi epidemiologik nazorat tizimidagi cheklovlarni ko'rsatdi. Hududiy tahlil ichak infeksiyalarining tarqalishi tumanlar kesimida juda notekis ekanini, eng yuqori xavf Nukus shahri va ayrim zich aholi yashaydigan hududlarda shakllanishini aniqladi. Variatsiya koeffitsiyentining yuqoriligi va determinatsiya koeffitsiyentining pastligi mavjud epidemiologik monitoringni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Olingan natijalar ichimlik suvi xavfsizligi, sanitariya-gigiyena nazorati va real vaqt rejimidagi epidemiologik monitoringni kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar:

o'tkir yuqumli ichak infeksiyalari, retrospektiv epidemiologik tahlil, epidemik jarayon, hududiy tafovutlar, sanitariya-gigiyena omillari, epidemiologik monitoring,

Biz retrospektiv tahlilni Qoraqalpog'iston Respublikasida 2014–2024 yillar davomida o'tkir yuqumli ichak infeksiyalari bilan kasallanishning ko'p yillik dinamikasini o'rganish va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida kasallanishning

epidemi jarayonining asosiy qonuniyatlarini aniqlash maqsadida amalga oshirdik. 2014–2024 yillar davomida O‘YuIK kasallanish dinamikasining retrospektiv tahlili natijasida jami uchta asosiy epidemik ko‘tarilish davri aniqlangan. Ushbu ko‘tarilishlar epidemik jarayonning mavsumiy, tashqi muhit omillariga sezgir va kasallanishning nomoyon bo‘lishi ko‘p omilli xususiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Quyida O‘YuIK bilan kasallanishning ko‘p yillik dinamikasi tahlil qilindi (3.1 rasm).




1 rasm Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholining o‘tkir yuqumli ichak infeksiyalari bilan kasallanishning ko‘p yillik dinamikasi (2014–2024yy.) (100ming aholiga nisbatan) ($R^2 \approx 0,27$)

Tahlilning dastlabki yillarida (2014–2015 yillar boshlanishi) kasallanish ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori bo‘lib, 2014 yilda 199,0 holat 100 ming aholiga nisbatan qayd etildi. 2015 yilga kelib ko‘rsatkich 164,9 gacha pasaygan bo‘lsa-da, epidemik jarayon barqaror yuqori fon bilan davom etgan. 1-epidemik ko‘tarilish davri (2017 yilning o‘rtalari) 2016 yilda 152,2 dan 2017 yilda 189,0 ga oshgan. Ushbu davr birinchi epidemik to‘lqin sifatida baholanadi. 2-epidemik ko‘tarilish davri (2021–2022 yillar pandemiyadan keyingi to‘lqin) 2018–2020 yillarda kasallanish rasmiy statistikada izchil pasaygan bo‘lsa-da, bu pasayish epidemik jarayonning xaqiqiy sustlashuvi emas, balki COVID-19 pandemiyasi sharoitida ichak infeksiyalarining kam aniqlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2020 yilda 85,2 holat qayd etilgan bo‘lib, bu yashirin kasallanish ulushining oshgani, tibbiyot muassasalariga murojaatning kamaygani va laboratoriyalarning COVID-19ga yo‘naltirilgani bilan bog‘liq. Pandemiya cheklovlari bekor qilingach, kasallanish keskin ko‘tarilgan: 2021 yilda — 199,6, dan 2022 yilda — 216,8 holat aniqlanga, tadqiqot davridagi eng yuqori ko‘rsatkichi. 3-epidemik ko‘tarilish davri (2024 yilga yaqin davom etuvchi post-epidemik yuqori fon) 2023 yilda kasallanish 182,8 ni tashkil etib, pandemiyadan keyingi yuqori fon saqlanib qolgan. 2024 yilda ko‘rsatkich yana 195,3 gacha oshgan. Umuman olganda, 2014–2024 yillardagi kasallanishning ko‘p yillik epidemiologik va statistik tahlil natijalari Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘tkir ichak infeksiyalari yuqori epidemiologik ahamiyatga ega kasalliklardan biri ekanini, uning tarqalishi mavsumiy, ekologik va sanitariya-gigiyena omillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan

murakkab jarayon ekanini ko'rsatdi. Usish tendensiyasidagi qayd etilgan pasayish yo'nalishiga qaramay, real jarayonning notekis tarqalish ko'rsatkichlari va pandemiyadan keyingi keskin ko'tarilishlar epidemiologik nazoratning holatiga bevosita bog'liq ekanini tasdiqladi. Variatsiya koeffitsiyentining yuqoriligi ($\approx 30\%$), variatsiya indeksining keskinligi ($\approx 2,54$), determinatsiya koeffitsiyenti pastligi ($R^2 \approx 0,27$) ichak infeksiyalari ustidan olib borilayotgan epidemiologik nazoratni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari ichimlik suvi xavfsizligi, oziq-ovqat nazorati, bolalar muassasalarida gigiyena amaliyotlarini kuchaytirish, real vaqt rejimidagi epidemiologik monitoring va ma'lumotlar raqamlashtirilishi kabi omillarni kuchaytirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

2 rasm Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlar kesimida, 2014-2024 yillar mobaynida aholining o'tkir yuqumli ichak infeksiyalari bilan kasallanishning



tahlili (100ming aholiga nisbatan)

2014–2024 yillar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarida o'tkir ichak infeksiyalari bilan kasallanishning o'rtacha intensiv ko'rsatkichlari tahlili hududlar o'rtasida sezilarli epidemiologik tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Olingan natijalar ichak infeksiyalarining tarqalishi demografik zichlik, sanitariya-gigiyena holati, ichimlik suvi sifati, kanalizatsiya tizimlarining imkoniyatlari, oziq-ovqat xavfsizligi va aholining migratsion faolligi kabi omillar bilan bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi. Tahlil qilingan davrda eng yuqori kasallanish Nukus shahrida qayd etilib (401,05 holat 100 ming aholiga), bu boshqa tumanlarga nisbatan bir necha baravar yuqori ko'rsatkichdir. Ushbu holat shahardagi yuqori aholi zichligi, savdo va umumiy ovqatlanish nuqtalarining ko'pligi, markazlashmagan ichimlik suvi manbalaridan foydalanish, bolalar muassasalarining katta yuklamada ishlashi va buning natijasida sanitariya infratuzilmasining yukning oshishi bilan izohlanadi.

Kasallanish bo'yicha yuqori o'rtacha ko'rsatkichlar Qanliko'l (167,4), Nukus tumani (160,02), Shumanay (139,6), Beruniy (148,0), Kegeyli (131,5) tumanlarida qayd etilgan bo'lib, bu hududlarda ichimlik suvi sifati va sanitariya-gigiyena talablari

bajarilishining barqaror emasligi, aholi migratsiyasining yuqoriligi va epidemiologik xavf omillarining ko'pligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. O'rtacha darajadagi kasallanish Chimboy (117,02), Moynaq (101,7), Qo'ng'iro't (71,88) va Ellikqal'a (75,3) tumanlarida kuzatilgan. Bu hududlarda infeksiya tarqalishi mavjud bo'lsa-da, yuqori xavfli zonalarga nisbatan epidemiologik vaziyat barqarorroq bo'lib, aholi zichligining pastligi va migratsiya oqimlarining cheklanganligi bilan izohlanadi. Eng past o'rtacha ko'rsatkichlar Qorao'zak (56,48) va Taxtako'pir (58,7) tumanlarida qayd etilib, bu hududlarda ichimlik suvi manbalarining barqarorligi, aholining tarqoq yashash darajasining yuqoriligi va sanitariya-gigiyena sharoitlarining nisbatan yaxshi saqlanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. O'YuIK bilan kasallanish eng kam ko'rsatkich Amudaryo tumani hududiga to'g'ri kelgan bo'lib kasallanish (40,2) ni tashkil qilgan bo'lib bu Amudaryo tumanida o'tkir ichak infeksiyalarining rasmiy darajada past qayd etilishi hududdagi rivojlangan sug'orish-drenaj tizimi, markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti va gigiyenik xulq-atvor bilan bog'liq bo'lib, shu bilan bir qatorda, epidemiologik nazorat va ro'yxatga olish tizimining cheklanganligi kasallanishning to'liq aniqlanmasligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Statistik tahlil natijalari ham epidemiologik tafovutlarni tasdiqladi. Minimal intensivlik Amudaryo tumanida (40,2), maksimal intensivlik esa Nukus shahrida (401,05) qayd etilib, hududiy amplituda 344,57 ni tashkil etdi. Bu ichak infeksiyalarining tarqalishida hududlar kesimida juda katta o'zgarishlar mavjudligini anglatadi. Tumanlar bo'yicha o'rtacha intensivlik (T_{mean}) taxminan 138–142 holatni tashkil qilib, Qoraqalpog'istonning umumiy epidemiologik yuklamasi o'rta darajada ekanini ko'rsatadi. Variatsiya koeffitsiyenti ($VK \approx 55\text{--}60\%$) infeksiya tarqalishining hududlar bo'yicha juda o'zgaruvchan va beqaror ekanini ta'kidlaydi. Bu ichimlik suvi sifati, sanitariya infratuzilmasi holati, aholining xulq-atvori va migratsion jarayonlarning bir xilligi bilan bog'liq emasligini tasdiqlaydi. Variatsiya indeksi ($VI \approx 7,1$) esa tumanlar o'rtasida kasallanish darajasi yetti martadan ortiq farq qilishi mumkinligini ko'rsatib, epidemik jarayonning yuqori darajada notekis ekanini namoyon etdi. Hududiy regressiya tahlili yuqori aholi zichligiga ega, ichimlik suvi tizimi markazlashmagan va iqtisodiy faol hududlarda ichak infeksiyalari xavfi yuqori bo'lishini ko'rsatdi.

Umuman olganda, 2014–2024 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining tumanlari bo'yicha o'rtacha kasallanish ko'rsatkichlarining epidemiologik va statistik tahlili ichak infeksiyalarining tarqalishi hududlar kesimida juda notekis, o'zgaruvchan va ko'p omilli jarayon ekanini ko'rsatdi. Eng yuqori xavf Nukus shahri va unga tutash hududlarda shakllanadi, eng past ko'rsatkichlar esa Qorao'zak, Taxtako'pir va Amudaryo tumanlarida kuzatiladi. Ushbu natijalar yuqori xavfli tumanlarda epidemiologik nazoratni kuchaytirish, ichimlik suvi sifatini muntazam laborator monitoring qilish, bolalar muassasalarida sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etilishini qat'iy nazorat qilish, oziq-ovqat savdosi obyektlarida xavfga asoslangan tekshiruvlarni kuchaytirish va ichak infeksiyalarining oldini olish bo'yicha kompleks profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. O'tkazilgan retrospektiv epidemiologik tahlil Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkir yuqumli ichak infeksiyalarining tarqalishi 2014–2024 yillar davomida murakkab, notekis va ko'p omilli epidemiologik jarayon ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari kasallanishning mavsumiy tebranishlar, hududiy tafovutlar hamda

sanitariya-gigiyena va ichimlik suvi bilan bog'liq omillar ta'sirida shakllanishini tasdiqlaydi. COVID-19 pandemiyasidan keyingi davrda ichak infeksiyalari bilan kasallanishning keskin oshishi epidemiologik nazorat tizimida mavjud bo'lgan zaif jihatlarni aniqlab berdi.

Pandemiyadan so'ng aholining oziq-ovqat bilan ta'minlanishida tayyor ovqatlarni uyga yetkazib berish xizmatlarining kengayishi yangi epidemiologik xavf omili sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu xizmatlar doirasida ovqat tayyorlash, qadoqlash, saqlash va tashish jarayonlari ko'pincha an'anaviy sanitariya-epidemiologik nazorat mexanizmlaridan tashqarida qolmoqda. Natijada, oziq-ovqat orqali yuqadigan infeksiyalarning tarqalish xavfi ortishi mumkin.

Shu munosabat bilan, tayyor ovqatlarni yetkazib berish faoliyatini sanitariya-epidemiologik nazorat tizimiga integratsiya qilish, xavfga asoslangan monitoringni joriy etish, gigiyenik talablar va oziq-ovqat xavfsizligi standartlariga rioya etilishini kuchaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ichak infeksiyalarining oldini olishda zamonaviy oziq-ovqat ta'minoti modellari hisobga olingan kompleks epidemiologik yondashuvni ishlab chiqish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Khamzaeva, N. T., Matnazarova, G. S., Saidkasimova, N. S., & Abdukaxarova, M. F. (2024). Coronavirus in the republic of uzbekistan during 2020-2023 retrospective epidemiological analysis of the disease (tashkent city as an example). *World Bulletin of Public Health*, 33, 108-114.

2. Matnazarova, G. S., Xamzayeva, N. T., & Kurbaniyazova, M. O. (2024). BOLALARDA SARS-COV-2 INFEKSIYASINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA OSHQAZON ICHAK TRAKTI BILAN BOG 'LIQ XOLATLAR.

3. Mirtazayev, O. M., Briko, N. I., Matnazarova, G. S., & Saidkasimova, N. S. (2019). Scientific, methodological and organizational bases of management of the epidemic process in case of salmonellosis infection in Uzbekistan. *Central Asian Journal of Medicine*, 2019(4), 72-80.

4. Ахмадалиева, Н. О., Нигматуллаева, Д. Ж., Ёкубов, М. С., & Хакимова, Д. С. (2018). Исследование показателей терморегуляции у рабочих в условиях нагревающего микроклимата. In *INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH* (pp. 223-225).

5. Oralbaevna, K. M., Toshtemirovna, K. N., & Ilxamovna, M. G. (2024). PROBLEMS OF SAFE AND AFFORDABLE WATER SUPPLY WITHIN THE POPULATION OF UZBEKISTAN AT THE PRESENT STAGE.

6. Rasulov, S. M., Matnazarova, G. S., Mirtazayev, A., & Xamzayeva, N. T. (2020). Improving the epidemiology, epizootology, and prevention of echinococcosis in Uzbekistan. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 7(2), 3029-3052.

7. Saidkasimova, N. S., Jumaniyazova, M. K., & Xamzayeva, N. T. (2024). SALMONELLYOZLAR EPIZOOTIK JARAYONINING NAMOYON BO 'LISHI.

8. Матназарова, Г. С., Саидкасимова, Н. С. Ж. М., & Хамзаева, Н. Т. (2023). Оценка проявленного эпидемического процесса сальмонеллеза. *IQRO журналы-2023*, 3, 37- 42.

9. Tajibayeva, D. A., Saidkasimova, N. S., & Xamzayeva, N. T. (2025). O 'tkir yuqumli ichak infeksiyalari epidemiologik xususiyatlari va ularning epidemiologik nazoratini takomillashtirish (qoraqolpog 'iston respublikasi misolida).
10. Usmanova, N. Y., Berdikulova, D. M., & Abdukaxarova, M. F. (2025). ENDEMIC GOITER WITH THE DISEASE TERRITORIES ACCORDING TO SPREAD.
11. Миртазаев, О. М., & Саидкасимова, Н. С. (2016). Современные аспекты эпидемиологии сальмонеллёзов в республике Узбекистан. Инфекция, Иммунология, Фармакология, 7, 103-106.
12. Xamzaeva, N. T., Matnazarova, G. S., Olimjonova, G. O., Xusainova, X. J., & Mamadalieva, E. S. (2023). COVID-19 infeksiyasi bilan kasallangan bolalarning epidemiologik taxlili. In E Global Congress (Vol. 2, pp. 117-119).
13. Маденбаева, Г. И., Матназарова, Г. С., Хамзаева, Н. Т., & Курбаниязова, М. О. (2024). ЗАБОЛЕВАЕМОСТЬ РАКОМ ПИЩЕВОДА В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАНЕ.
14. Матназарова, Г. С., Азизова, Ф. Л., Брянцева, Е. В., & Хамзаева, Н. Т. (2022). Вакцинопрофилактика Covid-19 в Узбекистане.
15. Неъматова, Н. Ў., Абдукахарова, М. Ф., & Хамзаева, Н. Т. (2024). Механизм Развития Эпидемического Процесса При Внутрибольничной Вич-Инфекции В Городе Ташкент.